

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ЙОШДАГИ БОЛАЛАРДА МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ

Vaxabova Gulshan Vafqul qizi

Urganch davlat universiteti pedagogika va psixologiya kafedrası
1- bosqich doktaranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bolalarga muloqot va muomila madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish haqida. Bolaning kichik yoshlardan boshlab oilada muloqot va muomila kunikmasini shakllantirish usullar haqida bayon etilgan. Oilada muloqot va muomila madaniyatini shakllantirishda ota onaning o‘rni va vazifalari bayon etilgan. Maqola MTT pedagoglari va ota-onalar uchun mo’ljallangan.

Olimlarning ta’kidlashlaricha bola psixologik jihatdan me’yorida rivojlanishi uchun ona uni kun davomida kamida 30-35 marotaba qo‘lga olishi kerak ekan. Shuni aytish joizki, aynan onaning bolaga qo‘l tekkizib turishiga bo‘lgan ehtiyoj butun umr davomida saqlanib qoladi va tarbiya vositalaridan biri sifatida ehtiroy etiladi. Mutaxassislar vaqt - vaqt bilan bolaning boshini silash yoki yelkasidan qoqib qo‘yish u bilan bo‘ladigan ishonchli muloqotni ta’minlab turuvchi vosita ekanligini ehtiroy etishadi. Millatimizda bu tajriba azaldan ma’lum bo‘lgan, keksa avlod vakillari bo‘lgan otaxonlarimiz, ayniqsa buvijonlarimiz farzand bilan muloqotda albatta bu qoidaga amal qilishgan. Bola predmetlarga bo‘lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo‘llash orqali oladi. Bu yerda kattalar bolaga qanday talablar qo‘yishlari muhim o‘rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo‘lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolada o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo‘yicha kattalarning muloqoti orqali o‘sadi. Kattalar tomonidan bo‘ladigan to‘g‘ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo‘ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning yuziga va ko‘zlariga qarashdan boshlanadi. Bir yarim-ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o‘zining kulgesi bilan javob qaytaradi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo‘l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so‘zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilalar orqali amalga oshiriladi. Bular harakatga signal bo‘lib xizmat qiladi. Bola 3 yoshgacha atrofidagi narsalarni ushlab ko‘rib, og‘ziga solib, ochib o‘rgansa, unda nutq paydo bo‘lgandan keyin bilimlarni egallash jarayoni yanada.

Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga jratishmumkin: birinchi davr — bu 3—4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emotsiyal jihatdano‘z-o‘ziniboshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqidir; ikkinchi davr — bu 4—5yoshni tashkilqilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish; uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlikvatadbirkorlikxususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarningkattalar bilan muloqoti ularda nutqning rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi. M.I.Lisinamaktabgacha yoshdagi

bolani kattalar bilan muloqotining vaziyatdan tashqari xarakterinita'kidlab, uning 2 shaklini ko'rsatgan. Bola 3—4 yoshga to'lganida hamkorliko'rnigamuloqotning bilish shakli shakllanadi. Vaziyatdan tashqari bilish muloqoti shakllanadi. Muloqotning bu shaklida yetakchi motiv — bilishdir. Bunda kattalar bilan hamkorlikqilibtevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan «nazariy hamkorlik» jarayoni amalgaoshadi. Bola hayvonlar, narsalar, planetalar, nimadan yasalganligi haqida juda ko'p «Nimauchun?» degan savollar beradi. Kattalar bola tomonidan bilim manbayi sifatida idrokqilinadi, savollariga va o'ziga jiddiy munosabatda bo'lishni, hurmatni talab qiladi. Buehtiyorjning muhimligi shundaki, bu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan tez xafa bo'luvchanlikdanamoyonbo'ladi. Bola 6—7 yoshga to'lganda muloqotning oliv shakli — vaziyatdantashqari shaxsiymuloqotga o'tiladi. Bunda bola kattalarga oila haqida, qayerda ishlashi, nimaishqilishihaqida savollar bera boshlaydi. Endi kattalar bola uchun ijtimoiy bilish manbayi sifatidanamoyon bo'ladi. Bolaning kattalar bilan muloqoti hamdardlik, o'zaro bir-birini tushunish, qarashlarning umumiyligiga intilish kabilar bilan chuqurlashadi. Uchyoshdaboladatengdoshlari bilan muloqotda emotsiyalar, ifodali qarashlardan foydalanadi. 3—4 yoshlibolauchun tengdoshi birgalikdagi amaliy faoliyatning ishtirotkchisiga aylanadi, uning individualxarakterologik xislatlarini sherigi payqamaydi. 4 yoshda tengdoshi muloqot sherigiga aylanadi. 4—5 yoshda sherigini o'zi bilan teng mavjudot sifatida ko'ribo'zini ubilantaqqoslaydi. 5—7 yoshga kelib tengdoshi bolaning ko'z o'ngida individuallikka aylanadi, ubola uchun muhim suhbatdoshga aylanadi, muloqotning ko'pchilik ko'rsatkichlari bo'yichakattalardan o'zib ketadi. Bola o'zini va tengdoshini bir butun shaxs sifatida drokqiladi, unga shaxsiy munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotning turli shakllari mavjud bo'lib, ular asosan bolaning rivojlanish darajasi, ijtimoiy tajribasi va muhitiga bog'liq. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan asosiy muloqot turlari keltirilgan:

1.Verbal muloqot (So'zlashuv muloqoti):

Og'zaki nutq: Bola so'zlar, jumlalar va hikoyalar orqali o'z fikrlarini ifoda etadi. Bu muloqot turi bolaning so'z boyligi, grammatik ko'nikmalari va nutq rivojlanish darajasiga bog'liq.

Savol-javob: Bolalar ko'p savol beradilar va javob olishga intiladilar, bu ularning o'rghanish va tushunish jarayonining bir qismi.

2.Noverbal muloqot:

Mimika va jestlar: Bolalar yuz ifodalari, qo'l harakatlari va tana tilidan foydalanib o'z his-tuyg'ularini va istaklarini ifoda etadilar.

Ko'z bilan muloqot: Bola ko'z orqali aloqa o'rnatadi va bu orqali atrofidagi odamlar bilan bog'lanadi.

3.O'yin qaroq muloqot:

Rol o'yinlari: Bolalar turli rollarni o'ynash orqali muloqot qiladilar, bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Konstruktor va ijodiy o'yinlar: Turli qurilmalar, konstruktorlar va rasm chizish kabi faoliyatlar orqali bolalar o'zaro hamkorlik qiladilar va fikr almashadilar.

Ijtimoiy muloqot:

Do'star bilan o'ynash: Bolalar o'z tengdoshlari bilan o'ynash orqali muloqot ko'nigmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayonda ular o'zaro kelishish, muammolarni hal qilish va guruhda ishlashni o'rganadilar.

Kattalar bilan muloqot: Bola ota-onas, o'qituvchi va boshqa kattalar bilan muloqot qilish orqali o'rganadi va ijtimoiy ko'nigmalarini rivojlantiradi.

4. Musiqa va ritm orqali muloqot:

Qo'shiqlar va she'rлar: Bolalar qo'shiqlar kuylash va she'rлar aytish orqali muloqot qilishadi, bu ularning til ko'nigmalarini va ritm hissini rivojlantiradi.

Raqs va harakatlar: Raqs va turli ritmik harakatlar orqali bolalar o'z his tuyg'ularini ifoda etadilar va boshqa bolalar bilan muloqot qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotning bu turlari ular rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, bolaning jamiyatda faol va muvaffaqiyatli bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 2.Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.
- 3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
- 4.Vohidov. M. "Bolalar psixologiyasi" T.,1999.
- 5.Davletshin. M va boshqalar" Yosh va pedagogik psixologiya "T., 2002
- 6.Nishanova.Z ,Alimova.G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.,2006
- 7.Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L.R. «Bog'cha va kichik mакtab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish». T., 2000 y.
- 8.Norboshyeva. M.O "Bolalar psixologiyasi" T., 2002
- 9.G'oziev E.G. Psixologiya Toshkent «Universitet» 1994
- 10.G'oziev E.G.Psixologiya.Toshkent,«O'zMU»,2002. G'oziev E. G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 2002
- 11.G'oziev E.G'. O'quvchilarda umumlashtirish usullarini shakllantirish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent. 2001.
- 12.G'oziev E. Ontogenet psixologiyasi. Monografiya. - Toshkent: Noshir. 2011.